



XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

29 478

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 067



200



Oilaviy korxona

Unitar korxona

6 636



Xususiy korxona

40




Aksiyadorlik jamiyat

420




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat, birlik



xususiy korxona, birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyat hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatları bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatları bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyat ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2021-yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 5 334 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 4 243 ta, oilaviy korxonalar 355 ta, xususiy korxonalar 214 ta, muassasalar 436 ta va boshqalar 86 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi
(1- oktabr holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 9 608 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 18,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 26,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 15,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o'sishidir.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 86,4 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 398 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili fuqarolik obyektlarini qurishda – o'tgan yilga nisbatan 11,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariada – 16,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,1 %) hamda bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 11,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 62,1 %) o'sishidir.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 12 082 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,0 % ga oshdi.


Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 22,5 % ga (jami savdodagi ulushi 65,0 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan – 25,3 % ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 27,3 % ga (jami savdodagi ulushi 27,9 %) o'sishidir.



**Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**



**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**




2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 004 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar – 14,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,9 %), yashash bo‘yicha xizmatlar – 17,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 %) o‘sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan

korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 629 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar sonidan aloqa yo'nalishida – 18,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 45,0 %), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 14,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,3 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 15,8 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,5 %), nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 18,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,3 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 22,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,3 %) o'sgan.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 100 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,6 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 3 067 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 269 taga yoki 9,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 928 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 531 taga yoki 22,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 355 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 29 478 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4 655 taga yoki 18,8 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 27 752 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4 994 taga yoki 21,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 243 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 497 taga kamayganini yoki 89,5 % ni tashkil etganini ko'rish mumkin.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**



Ro‘yxatdan o’tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 400 tani tashkil etib, ulardan 384 tasi yoki 96,0 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o’tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 45 taga yoki 12,7 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 33 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqitisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining
davlatlar kesimida soni**
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	167	201	286	332	384
shu jumladan:					
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	6	11	25	26	24
Sanoat	128	145	172	188	210
Qurilish	7	7	18	21	25
Savdo	9	18	33	43	56
Tashish va saqlash	3	2	2	5	4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6	7	6	9	10
Axborot va aloqa	0	0	5	4	4
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	1	2	5	7
Boshqa turlar	6	10	23	31	44


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
 (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Viloyat bo'yicha:	384	270	114
shaharlar:			
Andijon sh.	152	93	59
Xonobod sh.	19	14	5
tumanlar:			
Andijon	32	24	8
Asaka	22	17	5
Baliqchi	7	4	3
Bo'ston	7	7	0
Buloqboshi	17	13	4
Jalaquduq	15	9	6
Izboskan	7	6	1
Ulug'nor	6	4	2
Marhamat	14	11	3
Oltinko'l	22	16	6
Paxtaobod	9	7	2
Xo'jaobod	17	14	3
Shahrixon	27	20	7
Qo'rg'ontep'a	11	11	0

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimida soni**
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 34,5 %, Asaka 7,5 %, Andijon 7,0 %, Shahrixon 6,8 %, Izboskan 4,9 %, Baliqchi 4,8 %, Oltinko‘l 4,6 %, Xo‘jaobod 4,6 %, Qo‘rg‘ontepa 4,4 %, Marhamat 4,3 %, Paxtaobod 4,1 %, Jalaquduq 4,0 %, Buloqboshi 2,8 %, Ulug‘nor 1,9 %, Bo‘ston 1,7 % tumanlari va Xonobod shahri 2,1 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)**





2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni o'sib borishi, eng avvalo mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (20,3 %), Shahrixon (14,9 %), Andijon (14,7 %), Qo'rg'ontep'a (13,8 %), Asaka (13,2 %), Andijon shahri (7,6 %), Izboskan (3,5 %), Buloqboshi (3,1 %), Baliqchi (2,8 %), Oltinko'l (1,4 %), Paxtaobod (1,4 %) Xonobod shahri (0,8 %), Jalaquduq (0,8 %), Marhamat (0,8 %), Ulug'nor (0,6 %) va Xo'jaobod (0,3 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma‘lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma‘lumotlardan iborat bo‘lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta‘minlaydi.

Ro‘yxatga olingan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma‘lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma‘lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma‘lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.